



BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING INKLYUZIV TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYOTI

*Xushnayeva Sohiba Ochilovna¹,
Hazratova Hulkar Normurodovna²*

¹Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

²Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuziv tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Taklif etilgan metodika diagnostik-tahliliy, rivojlantiruvchi-amaliy va refleksiv-nazorat bosqichlaridan iborat uch bosqichli modelga asoslanadi. Tadqiqot boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabalari ishtirokida olib borilib, dastlab ularning inklyuziv tayyorgarlik darajasi maxsus so‘rovnoma asosida aniqlandi, so‘ngra seminar-treninglar tashkil etildi va yakuniy natijalar qayta baholandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, talabalarining inklyuziv tayyorgarlik darajasi 81,4 foizdan 88,5 foizga oshgani aniqlandi. Ayniqsa, nazariy bilimlar, amaliy-situativ ko‘nikmalar va refleksiv kompetensiyalarda ijobiy o‘sish kuzatildi. Olingan natijalar tizimli pedagogik yondashuv, amaliy mashg‘ulotlar, multimodal ta‘lim texnologiyalari bo‘lajak o‘qituvchilarning inklyuziv ta‘limga kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta‘lim, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, inklyuziv tayyorgarlik, pedagogik metodika, kasbiy kompetentlik, multimodal ta‘lim, pedagogik tajriba-sinov.

Аннотация: В данной статье освещается методика развития инклюзивной готовности будущих учителей начальных классов. Предложенная методика основана на трехэтапной модели, включающей диагностико-аналитический, развивающе-практический и рефлексивно-контрольный этапы. Исследование проводилось с участием студентов выпускного курса направления начального образования. На первом этапе с помощью специально разработанной анкеты был определен исходный уровень их инклюзивной готовности, затем были организованы семинары-тренинги, после чего результаты были повторно оценены. По итогам исследования установлено, что уровень инклюзивной готовности студентов повысился с 81,4% до 88,5%. Особенно заметный рост наблюдался в теоретических знаниях, практико-ситуативных навыках и рефлексивной компетентности. Полученные результаты показывают, что системный педагогический подход, практические занятия, мультимодальные образовательные

технологии являются эффективными средствами развития профессиональной готовности будущих учителей к организации инклюзивного образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, будущие учителя начальных классов, инклюзивная готовность, педагогическая методика, профессиональная компетентность, мультимодальное обучение, педагогический эксперимент.

Abstract: This article presents a methodology for developing the inclusive readiness of future primary school teachers. The proposed methodology is based on a three-stage model consisting of diagnostic-analytical, developmental-practical, and reflective-control stages. The study was conducted among graduating students of the Primary Education programme, where the initial level of inclusive readiness was assessed through specially designed questionnaires, followed by targeted seminar-training activities and repeated evaluation. The results demonstrated that the overall level of inclusive readiness increased from 81.4% to 88.5%, with noticeable improvements in theoretical knowledge, practical-situational skills, and reflective competence. The findings indicate that systematic pedagogical support, practical training, multimodal teaching approaches contribute significantly to strengthening future teachers' professional readiness for inclusive education. The proposed methodology can be applied in higher education institutions for improving teacher preparation in accordance with contemporary inclusive education requirements.

Keywords: inclusive education, future primary school teachers, inclusive readiness, teacher training, pedagogical methodology, professional competence, multimodal teaching, pedagogical experiment.

1. Kirish.

Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuzivlik tamoyillarining joriy etilishi nafaqat ijtimoiy tenglikni ta'minlash, balki ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. O'tgan yigirmanchi asrda inklyuzivlik tushunchasi asosan imkoniyati cheklangan odamlarni jamiyat bilan integratsiya qilish deb tushunilgan bo'lsa hozirga kelib bu atama har bir ijtimoiy subektga mamlakatimiz ijtimoiy iqtisodiy hayotida teng o'rin egallash uchun teng imkoniyatlar yaratish sifatida tushunila boshlandi.

Hozirgi kunda respublikamiz ta'lim tizimi ham inklyuzivlik prinsiplaridan kelib chiqib tubdan isloh qilinmoqda. Ta'lim sohasida ham insonlarga teng imkoniyatlar yaratish, „insonlarni rozi qilish“ yurtimizning ustuvor siyosatlaridan biri hisoblanib inklyuziv ta'limni tashkil qilish va rivojlantirishga doir bir qancha qonun, kodeks, farmon va qarorlar qabul qilingan. Bulardan inklyuziv ta'limga alohida e'tibor qaratilgan asosiy hujjatlardan biri 2020-yil 13-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“ PQ-4860-sonli qarori shular jumlasidandir [1-3].

Mamlakatimizdagi ta'lim to'g'risidagi asosiy qonuniy hujjat O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son Ta'lim to'g'risidagi Qonunining beshinchi va yigirmanchi moddalari talabiidan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinflardan

boshlaboq darslarni inklyuziv tashkil qilinishi uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning bilim va malakasi yetarli bo‘lishi zarur [4]. Chunki hozirda butun jahonda zamonaviy ta‘lim tizimida inklyuzivlik tamoyillarining joriy etilishi nafaqat ijtimoiy tenglikni ta‘minlash, balki ta‘lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida turli ehtiyojga ega o‘quvchilarning xususiyatlarini hisobga olgan holda inklyuziv ta‘lim jarayonini tashkil etish ularning nafaqat maktabdagi yuqori sinflarda fanlardan o‘zlashtirishiga, balki shaxs sifatida aqliy rivojlanishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi [5, 6].

Shularni inobatga olgan holda boshlang‘ich ta‘lim bo‘yicha oliy ta‘lim bitiruvchi kurs talabalarida o‘quvchilarning o‘ziga xosligini inobatga olgan holda ta‘lim jarayonini inklyuziv tashkil etish bo‘yicha talab qilinadigan kasbiy kompetentliklarini rivojlantirish bugungi kunning muhim masalasi hisoblanadi.

2. Adabiyotlar tahlili.

Inklyuziv ta‘lim atamasi 1994-yilda YUNESKO tomonidan Ispaniyada o‘tkazilgan maxsus ehtiyojli o‘quvchilar ta‘limiga bag‘ishlab o‘tkazilgan dunyo anjumanida muomalaga kiritilgan deb hisoblanadi. 1980-yillargacha mavjud yondoshuvlarda nogironligi mavjud o‘quvchilarni mavjud maktab ta‘lim tizimiga moslashtirishga asosiy e‘tibor qaratilgan bo‘lib, 1980-yillardan paydo bo‘lgan inklyuziv ta‘lim yondoshuvi o‘z mohiyatiga ko‘ra maktab ta‘lim tizimini o‘quvchilarning turli jismoniy va aqliy xususiyatlariga moslashtirishga asosiy urg‘u berishi bilan ajralib turadi [7, 8]

Maktab ta‘limida inklyuziv asosda o‘qitish masalalari bo‘yicha MDH olimlaridan P.I.Pidkasistiy, V.V. Voronkova, J.A. Levshunova YE. V. Mixalich, D.Z. Axmetova A. V. Timiryasova, T. A. Chelnokova, O. I. Akimova, Z. A. Movkebayeva, yurtimiz olimlaridan Z.X. Rasulova, G.M. Mirzayeva, S. Oqilova, Y.T. Ismoilova, K.X.Mamedov, Z.G‘aybullayeva, F.U.Qodirova, D.A.Pulatova, R.Shomahmudov, M.A.Sattorova, xorijiy olimlardan S. J. Salend, L. Florian, N. L. Hutchinson, K. Yamamoto, M. Ainscow, A. Sandill, J.McLeskey, A. J. Artiles, R. Slee, G. Hornby, D. Chambers, I. S. Schwartz kabi olimlar tomonidan inklyuziv ta‘limni to‘g‘ri tashkil qilish bo‘yicha batafsil izlanishlar olib borilgan hamda bu borada ular tomonidan oli borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida ilmiy-o‘quv adabiyotlari chop etganlar [9-20].

S.J. Salend va J. McLeskey tadqiqotlarida inklyuziv sinflarda samarali pedagogik amaliyotlarni joriy etish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lsa, Ainscow inklyuziv ta‘limni faqat pedagogik jarayon sifatida emas, davlat va maktab darajasidagi tizimli islohotlar orqali inklyuziya va tenglikni qanday rivojlantirish mumkinligi tahliliy ravishda ko‘rib chiqadi [21-22]. A.J. Artiles, E.B. Kozleskilarning 2016-yildagi ishida so‘nggi o‘n yillikdagi inklyuziv tadqiqotlar strategiyalarini umumlashtirishgan bo‘lsa, 2018-yildagi Slee‘ning ishida esa inklyuziv ta‘limni kengroq ijtimoiy va siyosiy kontekstda ko‘rilgan hamda u inklyuzivlikni faqat texnik yoki pedagogik talab sifatida emas, balki yangicha davlat siyosatlari va jamiyat tuzilishlari bilan bog‘liq deb baholangan [23-25].

M.Tashpulatova, Y.T. Ismoilova, M.A.Sattorova kabi mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan izlanuvchilar so‘nggi paytlarda o‘tkazilgan tadqiqotlarda imkoniyati cheklangan yoki nogiron o‘quvchilarga boshlang‘ich darajada ta‘lim berishda pedagogning malakaviy bilim, malaka va ko‘nikmalarga ko‘proq e‘tibor berila boshlandi hamda bu borada tegishli ilmiy xulosalar berildi [26-28].

Aynan shu yo‘nalishda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ning 2005-yildagi hisobotida ta‘kidlanishicha: “O‘qituvchilik murakkab faoliyat bo‘lib, barcha turdagi o‘quvchilar va ta‘lim muhitlari uchun birdek samarali hisoblanadigan yagona o‘qituvchi sifati va xulq-atvorlari majmui mavjud emas.” deb ta‘kidlangan. Shunga qaramay ya‘ni ta‘lim jarayonining murakkabligiga qaramasdan, mazkur hisobotga ko‘ra nogiron yoki biror nuqsoni mavjud bo‘lgan yoki ta‘lim jarayonida alohida biror e‘tiborni talab qiladigan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun maktabda va yoki maktabdan tashqari mustaqil ta‘limni inklyuziv holda to‘g‘ri tashkil qilish uchun o‘qituvchilardan bir qator qo‘shimcha bilim va ko‘nikmalarni alohida talab qilinishi mumkin [29].

Adabiyotlar tahlili bizga inklyuziv ta‘lim borasida qarashlar va yondoshuvlarning turfaligiga qaramasdan o‘qituvchining bu boradagi kasbiy tayyorgarligini oshirish va ularni maxsus qayta tayyorlash zarurati bo‘yicha yakdil fikrga egalar deb xulosa qilish imkonini beradi.


3. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarda inklyuziv tayyorgarlikni rivojlantirish uslubiyoti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabalarida inklyuziv ta‘limni to‘g‘ri va samarali tashkil qilish bo‘yicha kasbiy tayyorgarliklarini yanada rivojlantirish uslubiyoti deganda bu bo‘lajak o‘qituvchining bu boradagi bilim va malakasini nafaqat Ta‘lim to‘g‘risidagi qonun talabi darajasida balki jahonda mavjud xalqaro ijobiy tajribalardan foydalanib yanada yuqori yangi darajaga ko‘tarishga qaratilgan usullar jamlanmasini tushunishimiz mumkin [5].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarda inklyuziv tayyorgarlikni rivojlantirish metodikasi uzluksiz, tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etiladigan pedagogik jarayon hisoblanadi. Metodik ta‘sir samarali bo‘lishi uchun u o‘qituvchining mavjud tayyorgarlik darajasi, kasbiy ehtiyoji va amaliyotda duch kelayotgan muammolarini hisobga olgan holda qurilishi lozim. Shu asosda tadqiqot doirasida inklyuziv tayyorgarlikni rivojlantirish jarayoni quyidagi uchta o‘zaro bog‘liq bosqich orqali amalga oshiriladi, 1-rasm.

1. Diagnostik-tahliliy bosqich.

Mazkur bosqichning maqsadi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning inklyuziv tayyorgarlik darajasini aniqlash, ularning bu borada nazariy va huquqiy bilim darajasini, dars jarayonida o‘zlarini qanday tutishlari, ularning psixologik tayyorgarligi kabilar yuzasidan savollardan tuzilgan so‘rovnoma o‘tkazib uni tahlil qilish hisoblanadi.



1-rasm. Inklyuziv tayyorgarlikni rivojlantirish jarayoni bosqichlari

Bunda bo‘lajak o‘qituvchilardan ta’limni inklyuziv holatla samarali va to‘g‘ri tashkil qilish bo‘yicha sinov vaqtigacha mavjud nazariy bilimlarini, ularning ta’limning bu yangi yo‘nalishiga real munosabatini, ularning nazdida ta’limni inklyuziv amalga oshirish bo‘yicha mavjud muammolar, qiyinchiliklar yoki imkoniyatlar bor yoki yo‘qligi haqida so‘rovnoma va anketalar to‘ldirtirish orqali, o‘qituvchilar bilan pedagogik suhbat yoki darslarni kuzatish orqali mavjud muammolarni o‘rganiladi, so‘rovnoma ilova qilinadi, 1-ilova.

Ushbu bosqich natijalaridan kelib chiqib, rivojlantiruvchi-amaliy bosqichda bajariladigan ishlar rejasini tuzish imkoni tug‘iladi.

Diagnostik-tahliliy bosqich natijasida:

- o‘qituvchilarning inklyuziv tayyorgarlik darajalari, ularning nazariy-huquqiy bilimlari aniqlanadi;
- asosiy muammolar va dars jarayonida amaliy holatlarda o‘zlarini tutishlari bo‘yicha ko‘nikmalari baholanadi;
- rivojlantiruvchi-amaliy bosqichda bitiruvchi talabalarga ochiq dars yoki seminar treninglarda nimalarni ko‘proq o‘qitish bo‘yicha reja ishlab chiqiladi.

2. Rivojlantiruvchi-amaliy bosqich.

Rivojlantiruvchi-amaliy bosqich inklyuziv tayyorgarlikni rivojlantirish metodikasining markaziy va eng muhim bosqichi bo‘lib, bunda bitiruvchi kurs talabalari oliy ta’limdagi darslaridan tashqari inklyuziv ta’lim bo‘yicha defektolog, psixolog kabi maxsus mutaxassislar ishtirokida malaka oshirish kursidan o‘tadilar va maxsus sertifikatlarga ega bo‘ladilar.

Mazkur bosqichda bitiruvchi talabalarning inklyuziv ta’lim sohasidagi nazariy bilimlarini real pedagogik vaziyatlarga tatbiq etishga alohida e’tibor qaratiladi.


O‘qitish yanada samarali bo‘lish inklyuzivni ta’limni to‘g‘ri tashkil qilish uchun qo‘shimcha qog‘ozda chop etilgan va elektron materiallar mustaqil ta’lim uchun taqdim qilinadi. Bo‘lajak o‘qituvchilardan darsdan tashqari sharoitda trener kuzatuvida 20 minutlik kichik inklyuziv darslar tashkil qilinib, inklyuziv pedagogik texnologiyalarni qo‘llash

ko‘nikmasini rivojlantiriladi. Bundan tashqari pedagogik amaliyotlarda maktablarda bilimlar amaliy mustahkamlanadi.

Mazkur bosqichda “ustoz-shogird” tizimidan ham keng foydalanish mumkin, ammo muammo shuki ko‘p yillik tajribaga ega o‘qituvchilarda redagogikaning bu yangi yo‘nalishi bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalar bo‘lmasligi mumkin.

Rivojlantiruvchi-amaliy bosqichda talabalarni inklyuziv darslarni loyihalash va tashkil etishga tayyorlashga alohida e‘tibor qaratiladi. Shu maqsadda ular darslarni turli darajalarga moslab differensial rejalashtirish, o‘quv materiallarini ham shunga moslashtirish, darsda ishlanadigan topshiriqlarni turli murakkablik darajalarida ishlab chiqish, baholash mezonlarini ham shunga qarab to‘g‘rilash hamda sinfdagi barcha o‘quvchilarning darsda faolligini ta‘minlash bo‘yicha amaliy topshiriqlarni bajaradilar.

Ushbu bosqichda multimodal ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish malakalari oshiriladi. Talabalar o‘quv materiallarini turli kanallar orqali taqdim etish, ya‘ni matn, tasvir, audio, video, amaliy harakatlar va didaktik o‘yinlar vositasida tushuntirish usullarini o‘zlashtiradilar, 2-rasm.



2-rasm. Multimodal o‘qitish metodlari

Ayniqsa, jamoaviy faoliyat jarayonida talabalar o‘zaro hamkorlik qilish, turli fikrlarni hurmat qilish va inklyuziv qadriyatlarni amaliy faoliyatda namoyon etish tajribasiga ega bo‘ladilar. Tajriba-sinov ishlari davomida tajriba guruhi ishtirokchilari bilan maqsadli ravishda namunaviy o‘quv mashg‘ulotlari, seminar-treninglar va amaliy topshiriqlar tashkil etiladi. Ushbu faoliyatlar davomida talabalarning inklyuziv kompetensiyalarini rivojlantirish darajasi muntazam monitoring qilinadi hamda zarur hollarda metodik yordam ko‘rsatiladi.

Har bir mashg‘ulot yakunida talabalar tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil qilinib, yuzaga kelgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari muhokama etiladi. Mazkur bosqichning muhim xususiyati shundaki, unda talaba inklyuziv ta‘limga oid bilimlarni passiv ravishda o‘zlashtiruvchi emas, balki faol pedagogik faoliyat subekti sifatida ishtirok etadi. Natijada u inklyuziv yondashuvni tayyor tavsiyalar to‘plami sifatida emas, balki har bir pedagogik

vaziyatga mos ravishda ijodiy va moslashuvchan qo‘llaniladigan kasbiy faoliyat modeli sifatida anglay boshlaydi. Rivojlantiruvchi-amaliy bosqich o‘quv rejasida berilgan inklyuziv ta’lim bo‘yicha dars mashg‘ulotlari bilan parallel olib borilsa uning samaradorligi yanada oshadi. Semester yakunida talabalarning inklyuziv ta’lim bo‘yicha tayyorgarligi sezilarli darajada rivojlanadi.

3. Refleksiv-nazorat bosqichi

Ushbu bosqich inklyuziv tayyorgarlikni yanada rivojlantirish jarayonining yakuniy va umumlashtiruvchi bosqichi hisoblanadi. Refleksiv-nazorat bosqichi o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qiladi, erishilgan natijalarni baholaydi, metodik yondashuvlarning samaradorligini aniqlaydi, keyingi kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi.

Bunda o‘qituvchilar bilan kundalik hamda chorak yakunida yakuniy suhbatlar olib borish va tahlil qilish, o‘quvchi bilimni baholash tezkor natijalarini statistik baholab borish bilan qo‘llanilgan usullar samaradorligi tahlil qilinadi, pedagogik portfelni rivojlantirish yo‘nalishlari belgilanadi.

4. Pedagogik so‘rovnoma-tajriba-sinovlarning amalga oshirish uslubiyoti, natijalari va ularning tahlili

Pedagogik so‘rovnoma-tajriba-sinov ishlari ilmiy tadqiqotning so‘nggi tarkibiy qismi bo‘lib, ular nazariy jihatdan asoslangan metodik yondashuvlarni amaliyotda tekshirish, ularning pedagogik ta‘sirini baholash va aniq natijalar asosida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Tajriba-sinov ishlari ta’lim jarayonining tabiiy sharoitida, Axborot texnologiyalari va menejment universitetining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi guruhlarining talabalari ishtirokida amalga oshirildi.

Tadqiqot jarayonida inklyuziv tayyorgarlikni rivojlantirish metodikasi maxsus tashkil etilgan pedagogik ta‘sir sifatida qo‘llanildi. Tajriba-sinov ishlari davomida o‘qituvchilarning inklyuziv tayyorgarlik darajasidagi o‘zgarishlar dinamikasini kuzatish asosiy maqsad qilib belgilandi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari izchillik va tizimlilik tamoyillariga muvofiq ravishda uch bosqichda tashkil etildi. Eng dastlabki bosqichda Axborot texnologiyalari va menejment universitetining bitiruvchi boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining bilimi, munosabati va amaliy mahorati kabilar biz tomonimizdan maxsus shakllantirilgan so‘rovnoma orqali aniqlandi.

Tadqiqotda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuziv tayyorgarlik darajasini baholash uchun muallif tomonidan ishlab chiqilgan diagnostik so‘rovnoma qo‘llanildi. So‘rovnoma 30 ta savoldan iborat bo‘lib, inklyuziv ta’limga oid huquqiy va nazariy bilimlar, pedagogik vaziyatlarda qaror qabul qilish ko‘nikmalari, kasbiy munosabat hamda refleksiv fikrlashni qamrab oldi. Mazkur so‘rovnoma tajriba-sinov ishlari boshlanishidan oldin (pre-test) va yakunida (post-test) bir xil shaklda qo‘llanilib, inklyuziv tayyorgarlik darajasidagi o‘zgarishlarni qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi.

Ushbu bosqichda o‘qituvchilarning inklyuziv ta’limga nisbatan munosabati, nazariy bilimlari, amaliy tayyorgarligi va refleksiv qobiliyatlari diagnostika qilindi, 3-rasm.



3-rasm. Inklyuziv tayyorgarlik darajasini aniqlash bo‘yicha maxsus so‘rovnomalarni olish jarayoni


Ikkinchi bosqichda esa talabalar uchun maxsus seminar-treninglar o‘tkazildi. Mazkur darsdan tashqari seminar treningda talabalarning kasbiy tayyorgarligini inklyuziv yo‘nalishda yanada rivojlantirish uchun inklyuziv ta’limni tashkil qilishning asoslari bo‘yicha nazariy, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan pedagogik sharoitlar keyslari asosida amaliy mahorat ma’lumotlari taqdim etildi.

Ikkinchi bosqich shakllantiruvchi tajriba bosqichi bo‘lib, unda inklyuziv tayyorgarlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan ishlab chiqilgan metodika bevosita amaliyotga joriy etildi. Bu bosqichda tajriba guruhidagi o‘qituvchilar bilan maqsadli ravishda seminar treninglar va namunaviy o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etildi.

Uchinchi bosqich nazorat-umumlashtiruvchi bosqich hisoblanib, unda ikkinchi marotaba yana so‘rovnomalar o‘tkazildi, bitiruvchi kurs talabalarining inklyuziv tayyorgarlik darajasi qanchaga oshganligi yoki yo‘qligi maxsus testlar orqali qayta tekshirildi. Ushbu bosqichda olingan natijalar dastlabki birinchi bosqich ma’lumotlari bilan taqqoslandi hamda kuzatilgan o‘zgarishlar tahlil qilindi. Shuningdek, o‘qituvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligi, ularni qiynayotgan ularni kompetentligidan tashqari bo‘lgan muammolar bo‘yicha ham alohida savollar berildi va natijalar qo‘shimcha tahlil qilindi, 4-7-rasmlar.

So‘rovnomada shuningdek bitiruvchi kurs talabalaridan inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirish uchun maktablarda nimalar yetishmayapti deb hisoblashlari hamda inklyuziv ta’lim bo‘yicha o‘zlarida qaysi ko‘nikmalarni rivojlantirish zarur deb hisoblashlari bo‘yicha alohida erkin fikr berilishi so‘ralgan savollarga ham javoblar olinib alohida tahlil qilinishi ko‘zda tutildi.

So‘rovnomada boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalaridan 50 nafari ishtirok etib ular inklyuziv ta‘limga oid huquqiy va nazariy savollarga 76,0 foiz, amaliy-situativ savollarga 85,3 foiz, inklyuziv ta‘limga kasbiy munosabat va tayyorgarlik bo‘yicha o‘z-o‘zini baholash savollariga 80,2 foiz natija bilan to‘g‘ri javob berdilar. Inklyuziv kompetentlik bo‘yicha so‘rovnomadagi barcha savollarga to‘g‘ri javoblar umumiy 81.4 foizni tashkil qildi, 4-rasm.




4-rasm. Diagnostik so‘rovnoma natijalari

Inklyuziv ta‘lim samaradorligini oshirish uchun maktablarda nimalar yetishmayapti deb hisoblashlari bo‘yicha alohida savolga bo‘ljak o‘qituvchilarining deyarli yarmi ya‘ni 47.2 foizi maxsus jihozlar va asbob-uskunalar deb javob berishgan bo‘lsa, 7.5 foiz respondentlar inklyuziv ta‘limni tashkil qilish bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yetishmaydi deb hisoblar ekanlar.

20,8 foiz talabalar o‘qituvchilarining inklyuziv tayyorgarligi, bilim va ko‘nikmalari inklyuziv ta‘limni tashkil qilish uchun yetarli emas deb hisoblagan bo‘lsalar, 13,2 foiz respondentlar maktablarda defektolog, psixolog kabi maxsus mutaxassislar yetishmaydi deb javob berishdi. 11.3 foiz so‘rovnoma ishtirokchilari esa sinflarda o‘quvchilar sonining ko‘pligi, ota-onalar bilan bu borada munosabatlarning murakkabligi kabi boshqa sabablar inklyuziv ta‘limni tashkil qilish uchun eng asosiy muammolar deb e‘tirof etganlar, 5-rasm.


Bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bo‘lmish bitiruvchi kurs talabalarining inklyuziv ta‘lim bo‘yicha o‘zlarida qaysi ko‘nikmalarni rivojlantirish zarur deb hisoblashlari bo‘yicha alohida savolga javoblari quyidagicha bo‘ldi.



5-rasm. Respondentlarning inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish uchun maktablarda nimalar yetishmayapti deb hisoblashlari bo'yicha javoblari


Talabalarning 36 foizi inklyuziv ta'limni tashkil qilishda o'quvchilar diqqatini jalb qilish uchun pedagogik texnologiyalar, usullarni rivojlantirishlari ular uchun asosiy o'rinni egallashini qayd etgan bo'lsalar, 14 foiz so'rovnoma ishtirokchilari bilimni multimodal yetkazish uchun zaruriy o'quv materiallarini turli ko'rinishlarda (audio, multimedia, ko'rgazma shakllarda) tayyorlash ko'nikmasini eng muhim deb hisoblar ekanlar.

24 foiz respondentlar inklyuziv o'quvchilar bilan ishlashda psixologik kompetensiyalarni yanada rivojlantirish zarur deb javob bergan bo'lsalar, so'rovnoma ishtirokchilarining 10 foizi o'quvchilarni baholash masalasiga yanada ko'proq e'tibor berish lozimligini, inklyuziv o'quvchilar uchun individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish malakasi eng zaruriy kompetensiya sifatida e'tirof etdilar. Bulardan tashqari 8 foiz respondentlar dars jarayonini tashkil qilishda vaqtni boshqarish ko'nikmasini eng muhim deb javob bergan bo'lsalar, boshqa 8 foiz so'rovnoma ishtirokchilari bu savolga boshqa har xil javoblar berishgan, 6-rasm



6-rasm. Respondentlarning inklyuziv ta'lim bo'yicha o'zlarida qaysi ko'nikmalarni rivojlantirish zarur deb hisoblashlari bo'yicha javoblari

Inklyuziv tayyorgarlikni rivojlantirish metodikasining rivojlantiruvchi-amaliy bosqichida o‘qituvchi inklyuziv kompetensiyani rivojlantirishning epistemologik, emotsional va metodologik asoslari bo‘yicha dars mashg‘ulotlari o‘tkazilganidan so‘ng yana shu 50 nafar talabalardan qayta olingan test natijalari quyidagicha bo‘ldi.



7-rasm. Nazorat-umumlashtiruvchi so‘rovnoma natijalari

Inklyuziv kompetentlik bo‘yicha talabalarning umumiy natijalari 7.1 foizga yaxshilanib, 88.5 foizni tashkil qildi. Nazariy savollarga to‘g‘ri javoblar natijalari 76 foizdan 85.6 foizga ko‘tarilgan bo‘lsa, amaliy-situativ savollarga to‘g‘ri javoblar ko‘rsatkichi 85.25 foizdan 93.5 foizga oshgani kuzatildi. Talabalar o‘zlarining inklyuziv ta‘lim bo‘yicha bilimlariga ishonchlari ham oshib, refleksiv savollarga to‘g‘ri javoblar natijalari deyarli 5 foiz miqdorga oshib 85.05 foiz miqdorni tashkil qildi, 7-rasm.

Albatta ushbu natijalarning o‘ssishi taklif etilgan metodikaning juda qisqa rivojlantiruvchi-shakllantiruvchi bosqichli seminar treninglar natijasi o‘laroq kuzatildi. Uslubiyotni amalda yanada keng rivojlantirish uchun rivojlantiruvchi bosqich materiallarini yanada boyitish, jahondagi so‘nggi tendensiyalarni hisobga olgan takomillashtirilgan kamida bir haftalik kichik kurs materiallarini tayyorlash, bu kurs bo‘yicha onlayn platformalarni shakllantirish, ushbu kurslar uchun mamlakatimiz janubidagi insonlar mentalitetiga mos materiallarni tayyorlash yo‘nalishida yanada chuqurroq ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, takomillashtirilgan o‘quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish zarurligi aniqlandi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

1. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, inklyuziv ta‘limni samarali tashkil qilish uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida bolalarda bilimlar qanday shakllanishidan tortib, ularning psixologik-emotsional holatini boshqarish, sinfxonadagi qiziqarli bilim olish zavqini ushlab turish, o‘quvchilarning shaxsiyatiga bog‘liq murakkab ta‘limga oid, tarbiyaga oid jarayonlarni anglash va bu borada tegishli kompetensiyalarga ega bo‘lishni talab qiladi.

2. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijasida ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi tasdiqlanib, bo‘lajak o‘qituvchilarning inklyuziv tayyorgarlik darajasi 81,4 foizdan 88,5 foizga oshgani, ayniqsa nazariy bilim, amaliy-situativ ko‘nikmalar va refleksiv fikrlashda ijobiy o‘rish kuzatilgani aniqlandi.

3. Rivojlantiruvchi-amaliy bosqichla talabalarga inklyuziv kompetensiyani yanada rivojlantirishning epistemologik, emotsional, metodologik, kommunikativ va huquqiy asoslari batafsil tushuntirildi va ular nazariy asoslab berildi. Ushbu asoslar bo‘yicha maktab tizimiga markazlashgan holda monografiya, buklet va broshyuralar tayyorlash va o‘qituvchilarga yetkazib berish tavsiya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.10.2021 yildagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 638-son qarori

3. Konstitusiyaviy islohotlarimizning bosh maqsadi – inson qadri, xalq manfaatini amalda ta’minlashdir, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning konstitusiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvdagi nutqi Yangi O‘zbekiston № 122 (644), 2022-yil 21-iyun

4. O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni

5. Xushnayeva, S. O., Xazratov, A. N., & Hazratova, H. N. (2026). Inklyuziv kompetensiyani rivojlantirishning epistemologik, emotsional va metodologik asoslari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 6(2), 51-62.

6. Normurodovna, H. H., Kurbanovich, K. S., Shokirovich, R. Y., & Boymuratovna, B. G. (2023). Physical Development of Primary Class Students. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(5), 330-331.

7. Florian, L. (2012). Preparing teachers to work in inclusive classrooms.

8. Ainscow, M., & Sandill, A. (2010). Developing inclusive education systems: The role of organizational cultures and leadership.

9. Pidkasistiy P. I. Pedagogika: inklyuzivnoye obrazovaniye. – Moskva: Akademiya, 2017.

10. Voronkova V. V. Osnovi inklyuzivnogo obrazovaniY. – Sankt-Peterburg: Piter, 2019.

11. Akimova, O. I. (2011). Inklyuzivnoye obrazovaniye kak sovremennaya model obrazovaniY. In *Inklyuzivnoye obrazovaniye: metodologiya, praktika, texnologii*.

12. Movkebayeva, Z. A., & Oralkanova, I. A. (2014). Analiz sostoyaniya gotovnosti uchiteley nachalnih klassov k rabote v usloviyax inkluzivnogo obrazovaniy. *Uspexi sovremennogo yestestvoznaniya*, (12-5), 629-634.
13. Rasulova Z. X. Inkluziv ta’lim: pedagogik va psixologik jihatlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
14. Mirzaeva G. M. Inkluziv ta’limning nazariy asoslari va pedagogik yondashuvlari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.
15. Oqilova S. Inkluziv ta’limda pedagogik innovasiyalar. – Toshkent: Ilm-fan, 2021.
16. Hutchinson, N. L. (2014). *Inclusive Education in Canada: Issues in Teacher Preparation*.
17. Yamamoto, K. (2014). *Inclusive education in Japan: A reform in progress*.
18. Ainscow, M. (2020). *Promoting inclusion and equity in education: lessons from international experiences*. *Nordic Journal of Studies in Educational Policy*, 6(1), 7–16.
19. Florian, E., & Chambers, D. (2020). *Enhancing teacher education for inclusion*. (chapter/edited volume and several journal articles 2017–2021).
20. Schwartz, I. S. (2018–2020). *Work on inclusive preschool and autism intervention; leadership pieces and empirical reports (Haring Center activities)*.
21. Salend, S. J. (2011). *Creating Inclusive Classrooms: Effective and Reflective Practices*
22. McLeskey, J., et al. (2017). *High-Leverage Practices for Special Education Teachers*. (book/CEC reports and related articles; HLP framework 2017–2019).
23. Artiles, A. J. (2020). *Inclusive education in the 21st century: Disruptive interventions*. *The Educational Forum*, 84(4), 289–295.
24. Artiles, A. J., & Kozleski, E. B. (2016). *Inclusive education’s promises and trajectories: Critical notes about future research on a venerable idea*. *Educational Policy Analysis Archives*, 24(43).
25. Slee, R. (2018). *Defining the scope of inclusive education* — Think piece (commissioned for UNESCO/GEM background; used heavily 2018–2020).
26. M.Tashpulatova, Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ta’lim tarbiya jarayonini rivojlantirishda o‘qituvchining kasbiy mahorati, Magistrlik dissertatsiyasi, TerDu, Termiz, 2021 yil, 128 bet.
27. Y. Ismoilova, Bo‘lajak tarbiyachilarda pedagoglik odobi fazilatlarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari, O‘ZBEKISTON MILLIY Vestnik NUUz ACTA NUUz UNIVERSITETI XABARLARI, Volume 1, pages 61-63
28. Aminkulovna, S. M. (2019). The role of the concept of educational work of an educational organization in the formation of an inclusive environment. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
29. «European Agency for Development in Special Needs Education», Eur. J. Spec. Needs Educ., Vol. 12, issue. 1, pages. 89–91, 1997, doi: 10.1080/0885625970120109.